

16-dars

Darsning mavzusi: Talaffuzida tushib qoladigan va yonma-yon kelgan undoshlar (41 – 44-mashqlar)

Darsning ta’limiy maqsadi: o‘quvchilarning undosh harflarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida bilimlarini mustahkamlash, yonma-yon kelgan undoshlarning talaffuzi, unda yo‘l qo‘yiladigan kamchiliklar ustida ishlashga o‘rgatish; talaffuzda tushib qoladigan undoshlar haqida dastlabki tushunchalarni hosil qilish; talaffuz me’yorlariga riosa qila olish, bo‘g‘in ko‘chirish qoidalariga riosa qila olish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: kattalarga hurmatda bo‘lish, ularni qadrlashga o‘rgatish; o‘zining xato va kamchiliklarini to‘g‘ri tushunish, o‘zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish; o‘zidan kattalarga, o‘rtoqlariga va o‘zidan kichiklarga yordam berish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: o‘quvchilarning tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish; o‘qituvchi nutqini va mavzuga oid tushunchalarni, o‘zaro savol-javob, topshiriqlarni, kichik matnlarni, mavzu doirasidagi video va audio matnlarini tinglab tushuna olish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi dars

Darsning metodi: suhbat, analiz ,mustaqil ish metodi, “*Bir so‘z bilan ayting!*” ta’limiy o‘yini

Darsning jahozi: mavzuga oid rasmlar, turli so‘zlar yozilgan tarqatmalar, multimedia ilovalari.

I. Tashkiliy qism.

- salomlashish;
- davomat;
- ma’naviyat daqiqasi.

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi: *O‘z uyim – o‘lan to‘sagim.*

Saylanma diktant. O‘quvchilardan saylanma diktant olinadi. Bunda aralash berilgan so‘zlar ichidan yonma-yon kelgan undoshlari bor so‘zlar yozdiriladi.

Dangasa, hamma, og‘irlilik, ukki, dehqon, tasavvur, yulduz, g‘alla o‘zbek, muallif, kamtar, chittigul.

Uyga berilgan topshiriq – 40 mashq tekshiriladi. Savol-javoblar orqali mustahkamlanadi.

1. *Sh, ch, ng* harf birikmalari bo‘g‘inga qanday ko‘chiriladi?
2. Jarangli undoshlarni jarangsiz undoshlardan qanday ajratish mumkin?

III. Yangi mavzu bayoni.

“*Bir so‘z bilan ayting!*” ta‘limiy o‘yini orqali yandi mavzu tushuntiriladi. Bunda salvo va gapda tushirib qoldirilgan so‘zlar so‘raladi.

- O‘zbekistonning markaziy shahrining nomi. (*Toshkent*)
- Insonning yaqin kishisi. (*Do‘sst*)
- Oziq-ovqat mahsuloti. (*Go‘sht*)
- Har doim ... so‘zlash kerak. (*Rost*)

Ushbu so‘zlarning oxirida nechta undosh harf yozilgan?

O‘zbek tilida mana shu kabi oxirida ikkita undosh yonma-yon kelgan so‘zlarni aytganimizda, ba’zan so‘z oxiridagi **d, t** tovushlari tushib qoladi, ammo bu so‘zlarni yozganda, asliga muvofiq, ya’ni oxiridagi undosh harfni tushirib qoldirmay, *Toshkent, do‘sst, go‘sht, rost* kabi yoziladi.

O‘quvchilarga ushbu qoida asosida yangi mavzu tushuntiriladi.

Ayrim so‘zlar oxirida kelgan d va t undoshlari talaffuz qilinmaydi, ammo yoziladi: baland, rost, go‘sht...

Ba’zi so‘zlarda ikkita bir xil undosh yonma-yon keladi: hatto, tilla, issiq,....

Bo‘g‘in ko‘chirishda so‘zlardagi yonma-yon kelgan bir xil undoshlarning biri oldingi qatorda qoldirilib, ikkinchisi pastki qatorga o’tkaziladi: kat-ta, var-rak, ma-hal-la...

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Darslik bilan ishlanadi. **41-mashqda** taqdim etilgan she’r o‘qituvchi tomonidan ifodali o‘qib beriladi. She’rda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardagi undoshlar tahlil qilinadi. *Toshkent, baland, baxt, farzand, poytaxt* so‘zlaridagi yonma-yon kelgan undoshlar talaffuzi va imlosiga urg‘u beriladi.

42-mashq bajariladi. Nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan harflarni qo‘yib, so‘zlarni qatorini to‘ldirish topshirig‘l beriladi.

Javoblar: *xursand, mehribon, rostgo‘y, maqtanchoq, poytaxt, sayyora*.

43-mashq. Matematika fani bilan integratsiyani yo‘lga qo‘ygan holda quyidagi misollarning javobi hisoblanib, o‘quvchilar daftariga harflar bilan yoziladi.

Javoblar: ***to‘qqiz, o‘ttiz to‘qqiz, o‘n yetti, ellik, o‘n to‘qqiz, sakkiz.***

V. Darsga yakun yasash va baholash.

Dars yakunida o‘quvchilar joriy darsda o‘zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So‘ngra dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish.

44-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.

CHOPETISH UCHUN EMAS!